

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
AL-HORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI
«PEDAGOGIKA» FAKULTETI “BOSHLANG`ICH
TA'LIM SPORT
TARBIYAVIY ISH” TALABASI
A.ATAJANOVANING**

**“Bo`g`in nutq oqimi bo`linishining birligi
sifatida. Urg`u va uning ko`rinishlari”
*mavzusida yozgan***

TAQDIMOTI

REJA:

- O`zbek tilida bo`g`in tuzilishi qonuniyatlari va unuig ko`rinishlari.
- Bo`g`in turlari: ochiq va yopiq bo`g`inlar.
- Bo`g`in ko`chirilishi qoidalari.
- So`zlarning fonetik va morfologik bo`linishi
- O`zbek tilida urg`uning tabiati; bosh va ikkinchi darajali urg`u; leksik va logik urg`u; leksik urg`uning bog`li va erkin urg`uga bo`linishi.
- So`z ma`nolari va so`z shakllarini farqlashda urg`uning roli.
- Rus tilidan kirgan so`zlarda urg`u.

■ *Tayanch atama va iboralar:*

- bo`g`in, ochiq bo`g`in, yopiq bo`g`in, urg`u, so`z urg`usi, mantiq urg`usi.

- Havo oqimiga beriladigan bir zarb bilan aytiladigan bir tovush yoki bir necha tovushlarga ***bo`g`in*** deyiladi. Akustik nuqtai nazardan bo`g`in nutqning tovush bo`lakchasi bo`lib, unda bir tovush boshqalaridan o`zining jarangliligi bilan ajralib turadi, u unli tovushlar. Unli tovush bo`g`in hosil qiluvchi vositadir. SHuning uchun ham so`zdagi bo`g`inlar soni undagi unli tovushlar miqdoriga teng keladi. Hatto bitta unli tovushning o`zi ham mustaqil bo`g`in bo`la oladi. Undosh tovushlar unli bilan qo`shilgandagina bo`g`in hosil qiladi: ***Masalan, ol-ma, o-na-miz, meh-ri-bon, ga-ze-ta, tan-ta-na.***

- Ilmiy tadqiqotlardan ma'lumki, turkiy tillarda soʻzlar koʻpincha bir, ikki boʻgʻinli soʻzlar boʻlib, ular bir unli, bir unli va bir undosh yoki ikki undosh va bir unli tarzida tuzilgan.
- ***Masalan, o-ta, bosh, tosh kabi.***
- Hozirgi oʻzbek adabiy tilida qoʻllanadigan soʻzlarning boʻgʻinlari bittadan tortib toʻrttagacha tovushdan, internatsional soʻzlarda boʻlsa, beshtagacha tovushdan tuzilgan boʻladi: *o-na, o-i-la, bosh-liq, besh, burch, kon-vert, sprav-ka, tekst.*

**Bo`g`in tuzilishining o`ziga xos qonuniyatlari mavjud.
Chunonchi, ikki va undan ortiq tovushdan iborat
bo`g`inlarda unli va undosh tovushlarning o`rinlashish
tartibi quyidagicha bo`ladi:**

- unli – undosh: ish, o`n, ol.
- Undosh – unli: ki-shi.
- Undosh – unli – undosh: qosh, bosh, sez-gir.
- Unli – undosh – undosh: ost, ust, aql.
- Undosh – undosh – unli: bri-ga-da.
- Undosh – unli – undosh – undosh: to`rt, qirq.
- Undosh – unli – undosh – undosh – undosh: tekst, Marks.
- Undosh – undosh – undosh – unli – undosh: shtrix, spravka.
- Undosh – undosh – unli- undosh – undosh: shtamp.

- Bo`g`in Xarakteriga ko`ra ikki turli bo`ladi:
- Ochiq bo`g`in
- Yopiq bo`g`in
- Unli tovush bilan bitgan bo`g`in ochiq bo`g`in, undosh tovush bilan bitgan bo`g`in **yopiq bo`g`in deyiladi. Masalan, a-ka, da-la, bo-la; mak-tab, bog`-bon, qish-loq.**
- Misollar tahlili shuni ko`rsatadiki, bo`g`in tuzilishining o`ziga xos qonuniyatlari mavjud. Ammo bu qonuniyatlar asosida hosil qilinadigan bo`g`inlarning har qaysi tilda o`ziga xos tiplari bo`ladi.

- . Boshqa tillar kabi o`zbek tilining ham o`ziga xos bo`g`in tiplari mavjud. *Masalan,* o`zbek so`zlarida bo`gin qator kelgan undoshlar bilan boshlanmaydi; bo`g`in oxirida esa, ikkitadan ortiq undosh qator kelmaydi. Misollarga murojaat etamiz: *bi-lan, si-ra, qi-lich, ost, ust kabi.*
- Rus tilidan va rus tili orqali chet tillardan kirgan so`zlarda bo`lsa, bo`g`in boshida ham, oxirida ham ikkita – uchta undosh qator kelishi mumkin. ***Masalan, ota-kan, strel-ka, pro-pusk, tekst kabi.***

- Bo`g`in ko`chirilishining o`ziga xos qoidalari mavjud.
- Chunonchi, so`z bir yo`lga sig`may qolganda uning sig`may qolgan bo`g`ini boshqa yo`lga ko`chiriladi: *ba-land, sing-lim, kons-ti-tu-tsiya.*

- Soʻz bir yoʻlga sigʻmay qolganda boʻgʻin quyidagicha koʻchiriladi:
- a) soʻzning bosh yoki oxirgi boʻgʻini bir unlidan iborat boʻlsa, unday boʻgʻin birinchi yoʻlda ham qoldirilmaydi, ikkinchi yoʻlga ham koʻchirilmaydi. **Masalan,** *o-pasi emas, opa-si tarzida; u-darnik emas, undar-nik tarzida koʻchiriladi. SHuning kabi soʻzdagi oxirgi boʻgʻin bir unlidan iborat boʻlganda: mudofa-a emas, mudo-faa, manba-i emas, man-bai shaklida koʻchiriladi.*

- b) oxirgi bo`g`ini yolashtgan unlilardan shakllangan o-li-ya, so-li-ya, xi-mi-ya shaklidagi so`zlarning oxirgi bo`g`inlari ham ikkinchi yo`lga ko`chirilmaydi.
- v) birinchi bo`g`ini bir unlidan shakllangan va shu bo`g`indan keyin tutuq belgisi kelgan a'lo, e'lon tipidagi so`zlarning keyingi bo`g`inlari ikkinchi yo`lga ko`chirilmaydi.

- g) tarkibida ajratilmay aytiladigan, bir tovushni bildiruvchi qorishiq tovush (ng) va shch birikmalari qatnashgan bo`g`inlar ko`chirilganda n va g yoki sh va ch shaklida ajratilmaydi: sin-gil emas, si-ngil, ko`n-gil emas, ko`-ngil, so`n-gra emas, so`-ngra, ton-ggi emas, tong-gi tarzida; meshchan emas, me-shchan, pomesh-chik emas, pome-shchik, yamsh-chik emas, yam-shchik shaklida ko`chiriladi. Aks holda ikki harf (n va g) birikmasidan shakllangan bir fonema н (ng) ni; shuningdek rus tilidagi bir tovush (щ) ni ifodalash uchun qo`llanadigan, bir tovush ifodalaydigan shch birikmasini ikkiga ajratib qo`ygan bo`lamiz.

- Soʻz boʻgʻinlarini ikkinchi yoʻlga koʻchirish qoidalarini bayoni munosabati bilan ikkinchi yoʻlga boʻlib koʻchirilmaydigan boshqa baʼzi hodisalarni ham eslab oʻtishga toʻgʻri keladi:
- Koʻp xonali arab va rim raqamlari ikkinchi yoʻlga boʻlib koʻchirilmaydi: *XXIX, 16, 245 kabi.*
- Soʻzlarning birinchi harflaridan tuzilgan qisqartma otlar ikkinchi yoʻlga koʻchirilmaydi: *MDH, BMT* kabi.
- Ism-shariflar qisqartmasi familiyadan ajratib ikkinchi yoʻlga koʻchirilmaydi, birinchi yoʻlda ham qoldirilmaydi: *M.V.Lomonosov, A.Navoiy, H.H.Niyoziy* kabi.

- Birinchi sinf o`quvchilariga o`qish va yozish bo`g`in asosida o`rgatiladi.
- Bolalar alifbe davri tugagach, bo`g`in asosida mashq qilib o`qishni juda tez o`rganib oladilar.
- Poeziyada vazn talabiga ko`ra bo`g`inlarning soni, qisqa va cho`ziqligi hisobga olinib she'riy asar yaratiladi.

■ Soʻzning fonetik va morfologik boʻlinishi

- Soʻz til va nutqning eng muhim elementi. Til elementi sifatida soʻz maʼlum maʼno anglatuvchi nutq tovushlari kompleksi; nutq elementi sifatida esa, u soʻz birikmasi yoki gapning maʼlum maʼno va grammatik xususiyatiga ega boʻlgan eng kichik qismidir. Demak, soʻz tilning tovush tomoni va real maʼnoga ega boʻlgan aniq birligidir.

- Soʻzlar tovush tomoni-fonetik tomondan boʻgʻin va alohida tovushlarga boʻlinadi. *Masalan*, ona soʻzi ikki boʻgʻin, uch tovushdan (o-na; o-n-a); kitob soʻzi ikki boʻgʻin, besh tovushdan (ki-tob; k-i-t-o-b) hosil boʻlgan.
- Soʻzlar morfologik jihatdan oʻzak va affikslarga (soʻz yasovchi, shakl yasovchi va soʻz oʻzgartuvchi) yoxud morfemalarga maʼnoli qismlarga boʻlinadilar. *Masalan*, tokzorlarda soʻzini olib koʻrsak, u morfologik jihatdan toʻrt qismga boʻlinadi:

- Tokzorlarda soʻzi fonetik tomondan (*tok-zor-lar-da*) toʻrt boʻgʻinga, oʻn bitta tovushga, toʻrtta morfologik qismga boʻlinadi; maktablarda soʻzi ham fonetik tomondan toʻrt boʻgʻinga (*mak-tab-lar-da*) oʻn bitta tovushga; uchta morfematik qismga boʻlinadi. Misollarning birinchisidan (tokzorlarda) boʻgʻinlar soni morfemalar (oʻzak va affikslar) – maʼnoli qismlar soniga teng keladi, yaʼni soʻzning fonetik boʻlinishi morfologik boʻlinishga mos keladi: *tok-zor-lar-da*.

- Soʻzdagi boʻgʻinlardan birining kuchliroq ovoz (ohang) bilan talaffuz qilinishi urgʻu deyiladi. Urgʻu, odatda, boʻgʻindagi unli tovushga tushadi. Urgʻu olgan boʻgʻin urgʻuli boʻgʻin, urgʻu tushmagan boʻgʻin esa urgʻusiz boʻgʻin deyiladi.
- Oʻzbek tilida urgʻu dinamik urgʻu boʻlib, asosan, soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushadi: ota, ona, kitob, qishloq kabi. Soʻzlarga affiks qoʻshila borishi bilan urgʻu ham shunga mos ravishda koʻcha boradi: paxta – paxtakor – paxtakorlar.

- Urg`u nutq organlaridagi tovush artikulyatsiyasining kuchlanish darajasiga ko`ra bosh va ikkinchi darajali urg`ularga bo`linadi. Bosh urg`u va ikkinchi darajali urg`u, odatda, ko`p bo`g`inli so`zlarga nisbatan belgilanadi. Ikki uch bo`g`inli so`zlarda oxirgi bo`g`indagi unli kuchli ohang bilan aytilsa, oldingi bo`g`inlardagi unlilar unga nisbatan kuchsizrohang bilan talaffuz etiladi. *Masalan*, dada-bosh urg`u ikkinchi bo`g`inga tushgan; dadamlar so`zida esa bosh urg`u uchinchi bo`g`inga, ikkinchi darajali urg`u ikkinchi bo`g`inga tushgandir. demak, bosh urg`u, asosan oxirgi bo`g`inga, ikkinchi darajali urg`u esa undan avvalgi bo`g`inlarga tushadi: *o`qituvchi, qishlog`imiz, paxtakor* kabi

■ Yuqoridagicha soʻzning biror boʻgʻiniga tushgan urgʻular soʻz urgʻusi yoki leksik urgʻu deb yuritiladi. Leksik urgʻu xarakteriga koʻra ikki xil boʻladi:

- 1. Bogli urgʻu.
- 2. Erkin urgʻu.

- BOG`LI URG`U - so`zning birorta bo`g`iniga bog`langan urg`u. Chunonchi, fransuz tilida urg`u, asosan so`zning oxirgi bo`g`iniga (Marsel, Parij, Stendal), polyak tilida oxirgidan bitta oldingi bo`g`inga (Varshava, Vrotslav, Krakov), nemis, ingliz tillarida esa ko`pincha birinchi bo`g`inga (Genrix Geyne, Gyote, Bayron) tushadi. Demak, bu tillarda urg`u asosan so`zning bir bo`g`iniga bog`langan bo`ladi.

- ERKIN URG`U – bir til doirasida (masalan, rus tilida) so`zning turli bo`g`inlariga tushishi mumkin: parta (birinchida), parad (oxirida), professor (o`rtasidagi bo`g`inda). Shu nuqtai nazardan qaraganimizda, o`zbek tilida ham urg`u bog`li urg`udir. Chunki, o`zbek tilidla urg`u, asosan oxirgi bo`g`inga tushadi. Ammo bu umumiy qoidaga mos kelmaydigan holatlar ham yo`q emas.

- O`zbek tilida quyidagi holatlarda urg`u oxirgi bo`g`inga tushmaydi:
- Kelib chiqishi jihatidan arab va tojik tiliga xos bo`lgan ba`zi ravishlarda: *yangi, doim, aslo, hamisha*;
- ba`zi yordamchi so`zlarda: *ammo, lekin, hatto, garchi*;
- modal so`zlarda: *zero, afsuski, albatta*.
- Hamma, barcha, qancha, qanday, allakim, allanima, allaqancha, jami, kimdir kabi olmoshlar.
- Maxsus intonatsiya bilan aytilgan *ikki, etti, o`n bir, o`n besh* kabi sonlar: *tashla, boshla, o`tir* kabi fe`lning buyruq shakllari: *har kim, har qachon, hech nima, hech qanday* kabi tarkibli olmoshlarda urg`u oxirgi bo`g`inga tushmaydi

- Soʻz oxiriga qoʻshiladigan quyidagi affikslar ham urgʻu olmaydilar:
- Birinchi guruh shaxs-son afikslari: *kelarman, kelarsan, oʻquvchiman, oʻquvchisan, oʻquvchimiz, oʻquvchidir.*
- Donalik va chama son yasovchi –*ta, -tacha* affikslari: *beshta, oʻnta, beshtacha, oʻn ettitacha* kabi.
- Ravish yasovchi –*cha, -dek, -day* affikslari: *bolacha, otdek, gulday* kabi.
- Feʼlning boʻlishsiz shaklsini yasovchi –*ma* affiksi: *kelma, yozma, oʻqima* kabi.
- –*u, -yu, -ku, -mi, -chi, -yoq, -oq* kabi yuklamalar: *tanimayapsizmi? Ishda-ku, biz-chi.*

- Urg`u so`zlarni to`g`ri talaffuz qilish normalarini belgilashdan tashqari, so`z ma`no va so`z shakllarini farqlashga xizmat qiladi.
- Urg`u tovush tomoni bir xil bo`lgan leksik birliklar va grammatik shakllarni farqlashda muhim ahamiyatga ega:
 - olma, bosma, bo`lma (fe`lning bo`lishsiz shaklsi), olma, bosma, bo`lma (meva, predmet va joy nomlari).
 - Yangi, hozir (sifat), yangi, hozir (ravish).
 - Atlas (matoning bir turi), atlas (geografik kartalar to`plami).
 - Qushcha (kichik qush ma`nosida-otning kchiraytirish shaklsi), qushchi, qushdek, qushday ma`nolarida – otdan yasalgan ravish – grammatik shakllar farqlanmoqda.
 - uchuvchimiz, o`quvchimiz – shaxs-son affiksi (biz uchuvchimiz, biz o`quvchimiz (uchuvchimiz, o`quvchimiz – egalik affiksi (bizning uchuvchimiz, bizning o`quvchimiz) kabilar.

- O`zbek tili leksikasi yangi tushunchalarni ifoda etuvchi yangi so`z va terminlar – rus-internatsional so`zlar hisobiga kundan-kunga boyib bormoqda. Rus tili orqali kirgan so`zlarning talaffuzini to`g`ri egallashga intilish natijasida o`zbek tili urg`usida ham ma`lum o`zgarishlar yuz berdi. Chunki rus tilidan kirgan so`zlar, asosan o`zining rus tilidagi holatini, erkinligini saqlab qoldi. Misollar: programma, texnik (ot), texnik (sifat), akademik (ot), akademik sekretar (sifat).

- Ammo bu tipdagi erkin urg`uli so`zlarga o`zbekcha urg`uli affikslar qo`shilganda urg`u shu affikslarga ko`chadi. Bu tilimizda o`zlashgan so`zlarning o`zbek tili fonetik qonuniyatlariga ma`lum darajada bo`ysunganini ko`rsatadi. Bu holatni o`zbek tiliga ancha ilgari kirib o`zlashib qolgan so`zlarda ham ko`rishimiz mumkin. Masalan, lampa so`zining urg`usi rus tilida birinchi bo`g`inda, o`zbek tilida esa urg`u oxirgi bo`g`inda: lampa. Shunga o`xshash bir qator rus tilidan kirgan so`zlarning urg`usi tilimizda o`z o`rnini o`zgartirgan: tserkov, emas, cherkov; mashina emas, mashina // moshina, botinki emas, botinka //botinka kabi. Bulardan qati' nazar, tilimizga rus tilidan va rus tili orqali chet tillardan kirgan so`zlarning asosiy qismi o`zining urg`usini to`la saqlab qolgan.

- Urg`uning ahamiyati shundaki, u adabiy talaffuz (orfoepiya) bilan zich bog`liqdir. Agar so`zning urg`usi buzilsa uning ma`nosini tushunish qiyinlashadi, hatto tushunmasligi ham mumkin. Shuning uchun har bir so`zning urg`usini ham, imlosini ham puxta o`zlashtirib olish hamda to`g`ri, adabiy talaffuzga doim rioya qilib so`zlash zarur .

Savollar:

- 1. Bo`g`in deb nimaga aytiladi?
- 2. Bo`g`inning qanday ko`rinishlari bor?
- 3. Bo`g`in ko`chirish qoidalarini tushuntiring.
- 4. Urg`u deb nimaga aytiladi?
- 5. Urg`uning qanday ko`rinishlari bor?

Adabiyotlar:

- 1. Tursunov U., Raxmatullayev Sh., Muxtorov J. Hozirgi o`zbek adabiy tili. – T.: “O`zbekiston”, 1992.
- 2. O`zbek tili grammatikasi. 1-tom.-T.: “Fan”, 1975.
- 3. G`ulomov A. O`zbek tilida urg`u.-T., 1977.
- 4. Jamolxonov H. Hozirgi o`zbek adabiy tilidan ma`ruza matnlari (Kirish. Fonetika va fonologiya. Grafika va orfografiya).- Toshkent, 2000.
- 5. Yunusov R. O`zbek tilidan praktikum. 1-qism.-Toshkent, TDPU, 2006.
- 6. G`ulomov A., Tixonov A.N., Qo`ng`urov R. O`zbek tili morfem lug`ati.- Toshkent, 1977.
- 7. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G`ulomova X., Yo`ldosheva Sh. Ona tili.- Toshkent, 2007.
- 8. www.ta'lim.uz
- 9. www.ziyonet.uz.